ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ZOOLOGIYA INSTITUTI

SHAKARBAYEV ULUG‘BEK ABDULAKIMOVICH

MARKAZIY VA SHIMOLI-G‘ARBIY O‘ZBEKISTON SUV MOLLYUSKALARI TREMATODA SERKARIYALARI FAUNASI VA UNING SHAKLLANISH YO‘LLARI

03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘T: 595.122.596

Fan doktori (DSc) dissertasiyasi avtorefarati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)

ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ZOOLOGIYA INSTITUTI

SHAKARBAYEV ULUG‘BEK ABDULAKIMOVICH

MARKAZIY VA SHIMOLI-G‘ARBIY O‘ZBEKISTON SUV MOLLYUSKALARI TREMATODA SERKARIYALARI FAUNASI VA UNING SHAKLLANISH YO‘LLARI

03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.DSc/B114 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Zoologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.izoology.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy konsultant:	**Akramova Firuza Djalaliddinovna** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Medetov Maxsetbay Japakovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Izzatullayev Zubaydulla Izzatullaevich biologiya fanlari doktori, professor
	Eshova Xolisa Saidovna biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.52.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «27» mart soat 10^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 232^{b}-uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (99871) 289-04-65, e-mail: zoology@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1722-AR raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 232^{b}-uy, Tel.: (99871) 289-04-65.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «13» mart kuni tarqatildi.
(2025-yil «13» martdagi №1 raqamli reestr bayonnomasi)

B.R.Xolmatov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, b.f.d., professor

G.S. Mirzayeva
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

A.E. Kuchboyev
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda dunyo miqyosda qishloq xo‘jaligi va ov hayvonlariga turli gelmintoz kasalliklarining salbiy ta’siri yildan-yilga ortib bormoqda. Gelmintoz kasalliklarni keltirib chiqaruvchi trematodalar hayotiy siklida umurtqali hayvonlarning barcha guruhlari, jumladan baliqlar, amfibiyalar, sudralib yuruvchilar, qushlar va sutemizuvchilar qatnashadi. Ayniqsa, trematoda lichinkalari tufayli turli geografik mintaqalarda millionlab odamlar jabr chekmoqda[1], shuningdek, chorva mollariga ham iqtisodiy zarari yildan-yilga ortib bormoqda. Shunga ko‘ra, trematoda serkariyalari va partenitlarini morfologik, ekologo-biologik tahlil qilish, parazit lichinkalarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda odam va hayvonlar trematodozlarining oldini olishning kompleks chora-tadbirlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda trematoda serkariyalari faunasini baholash, turli omillar ta’sirida ularning tabiiy biotsenozlarda tarqalishini aniqlash, suv va quruqlik mollyuskalari organizmidagi serkariyalar hamda partenitlar xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan turli xil suv havzalarida serkariyalar jamoasini baholash; xo‘jayin – mollyuskadan serkariyalarning ajralib chiqish ritmlari va ularni tartibga soluvchi omillarni aniqlash, molekulyar-genetik diagnostika usullarini ishlab chiqish, hayvonlar hamda odamlarda trematodozlarning oldini olish usullarini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo‘jalik sohasini rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan Shimoli-sharqiy O‘zbekiston suv havzalari mollyuskalarida rivojlanadigan trematoda serkariyalari faunasi inventarizatsiya qilindi hamda bioekologik xususiyatlari tadqiq etildi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida[2] «Chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish va mahsuldorligini oshirish bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirish» ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, qishloq xo‘jaligi hayvonlariga jiddiy ta’sir etuvchi trematodozlarni keltirib chiqaruvchi suv ekotizimlarining o‘ziga xos senozlarida serkariyalar faunasini aniqlash va ekologiyasining turli jihatlarini o‘rganish umurtqali hayvonlar xo‘jayinlarini izlab topish, ularning zararlash strategiyasini aniqlash inson salomatligi hamda veterinariya tibbiyotining amaliy muammolarini hal etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 martdagi PQ-5017-son “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

[1] Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2006 yildagi, 378 – sonli informatsion byulleteni.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnolgiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyani rivojlantirishning V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[3]. Trematoda serkariyalari faunasi, ularning ekologiyasi va taksonomiyasini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning etakchi ilmiy va ta’lim muassasalari – The University of New Mexico (AQSh), Charles University (Chexiya), Nicolaus Copernicus University (Polsha), University of Illinois (AQSh), Muséum Nationale d’Histoire Naturelle de Paris (Fransiya), Friedrich-Alexander-Universität Erlangen-Nürnberg (Germaniya), Universidade Federal de Minas Gerais (Braziliya), Shahrekord University (Eron), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Alexandria University (Misr), New York University (AQSh), Natural History Museum (Buyuk Britaniya), Heilongjiang University, South China Agricultural University (Xitoy), Zoologiya instituti, Ekologiya va evolyutsiya muammolari instituti, Sistematika va ekologiya instituti (Rossiya), Belarus davlat universiteti (Belarus), Zoologiya instituti (Ukraina), Zoologiya instituti (Ozarbayjon), Zoologiya instituti (Qozog‘iston) tomonidan olib borilmoqda.

Chuchuk suv mollyuskalarida rivojlanadigan serkariyalar faunasi, taksonomiyasi va molekulyar biologiyasini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalar olingan: jumladan serkariyalarning turlar xilma-xilligi va trematodalar tarqalishidagi roli, odam va hayvonlarda trematodozlarning paydo bo‘lish yo‘llari aniqlangan (The University of New Mexico, Charles University, Nicolaus Copernicus University, Rossiya Fanlar akademiyasi Ekologiya va evolyutsiya muammolari instituti); serkariyalar morfologiyasi, biologiyasi, molekulyar filogeneyasi va taksonomik komplekslari xususiyatlari ochib berilgan (Friedrich-Alexander-Universität Erlangen-Nürnberg, Universidade Federal de Minas Gerais, Natural History Museum, New York University, Belarus davlat universiteti); Schistosomatida turkumi trematodalarning lichinkalari keltirib chiqaradigan odam serkariozlarini aniqlash va oldini olish usullari ishlab chiqilgan (University of Cambridge, New York University, Charles University, Heilongjiang University, South China Agricultural University, Rossiya Fanlar akademiyasi Ekologiya va evolyutsiya muammolari instituti).

Dunyoda trematoda serkariya va partenitlarining morfologiyasi, biologiyasi, ularga qarshi kurash hamda ularning zararini bartaraf etish bo‘yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: turli xil suv havzalarida serkariyalar jamoasini tadqiq etish; xo‘jayin – mollyuskadan serkariyalarning ajralib chiqish ritmlari va ularni tartibga soluvchi omillarni aniqlash; serkariyalarning yashovchanligi, odam va hayvonlarni zararlash xavfi; serkariya harakatlarining tabiatini aniqlash va lichinkalarning asosiy xo‘jayinlarini izlash hamda zararlashga moslanishini baholash; serkariyalarning gravitatsiya, yorug‘lik va gidrodinamika kabi muhit omillariga reaksiyalarini kuzatish; evolyutsiya jarayonida trematodalarning xo‘jayinni turli guruh serkariyalari bilan zararlashining asosiy strategiyalari paydo bo‘lishining ehtimoliy usullarini aniqlash; molekulyar-genetik diagnostika usullarini ishlab chiqish; odam

[3] Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.works.doklad.ru, http://www.km.ru, www.dissercat.com, www.researechget.com, www.fundamental-research.ru, www.webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

serkariozlari qo’zg’atuvchilarining turlar tarkibini aniqlash; hayvonlar hamda odamlarda trematodozlarning oldini olish usullarini takomillashtirish va zararlanish holatini doimiy nazorat qiluvchi tizimini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Trematoda serkariya va partenitlarining tur tarkibini aniqlash, serkariyalar taksonomiyasi, molekulyar-genetik tahlil qilish bo‘yicha xorijlik olimlar**:** W.Haas (1994), Ch. Bayssade-Dufour (2001), V.V.Prokofyev (2006), E.Zbikowska, A.Nowak (2009), A.A.Manafov (2011), S.V.Brant va boshq., (2011), H.A.Pinto va boshq., (2014), P.Horak va boshq., (2015), E.S.Loker va B.V.Hofkin (2015), N.K.Sanil va K.P. Janardanan (2020), A.Faltýnková va boshq., (2022) va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH respublikalarida serkariyalarning morfo-biologik xususiyatlari, ekologiyasi va evolyutsiyasi, turlarning taksonomik tahlili bo‘yicha V.I.Zdun (1961), T.A.Ginetsinskaya (1968), M.I.Chernogorenko (1983), S.A.Beer, M.V.Voronin (2007), L.N.Akimova (2010, 2016), S.K.Semenova va boshq., (2010), O.I. Korobov (2010), O.M. Bonina, E.A. Serbina (2019), A.H. Postevoy (2020), N.M. Ponomareva (2020), T.M. Kudryavseva (2020), A.V. Izrailskaya (2022) tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda trematoda serkariyalari faunasi bo‘yicha tadqiqot ishlari X.Nasimov (1967), E.Aristanov (1969), A.Tuxmanyants, E.Shaxurina (1971); D.Azimov, T.Kabilov (1977), B.Davronov (1999), F.D. Akramova (2011) va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Biroq mavjud ma’lumotlar eskirgan. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, keyingi yillarda Shimoli-sharqiy O‘zbekiston suv havzalari mollyuskalarida rivojlanadigan trematoda serkariyalari faunasi va ekologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan va yangi ma’lumotlar olingan (Shakarbayev va boshqalar, 2011, 2013, 2014, 2015; Shakarbayev, 2017). Lekin ushbu ma’lumotlar O‘zbekistonning Markaziy va Shimoli-g‘arbiy mintaqalaridagi suv havzalari mollyuskalarining trematoda serkariyalar bilan zararlanishining holatini aks ettirmaydi. Serkariyalar faunasi, biologiyasi va sistematikasi, trematodalarning tarqalishi va odam va hayvonlarda parazitar kasalliklar o‘choqlarining paydo bo‘lishida tutgan o‘rni, trematodalar dominant guruhlarining hayot sikli va molekulyar biologiyasini o‘rganish, hududlardagi vaziyatning o‘zgarishini ekspert baholashni ishlab chiqish va profilaktika chora-tadbirlarini amaliyotga tadbiq etish alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot mussasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Zoologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Umurtqali hayvonlarning gel’mintofaunasining shakllanish yo‘llari, taksonomiyasi va qarshi kurash usullarini takomillashtirish” (2021-2024-yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonning Markaziy va Shimoli-g‘arbiy suv havzalari mollyuskalarida rivojlangan trematoda serkariyalar faunasini baholash, bioekologik xususiyatlarini aniqlash hamda hayvonlarda keng tarqalgan trematodozlarning oldini olish usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Markaziy va Shimoli-g‘arbiy O‘zbekiston chuchuk suv mollyuskalarining turlar xilma-xilligi hamda trematoda partenit va serkariyalari bilan zararlanishini aniqlash;

chuchuk suv havzalari mollyuskalarida rivojlangan serkariyalar faunasining tur tarkibini aniqlash;

mollyuskalarning trematoda serkariyalari bilan zararlanishining mavsumiy dinamikasini tahlil etish;

trematoda serkariyalarning suv havzalarida tarqalishini yoritish;

mollyuskalarning trematoda serkariyalari faunasining shakllanishidagi rolini aniqlash;

serkariyalarning turli ekologik va sistematik guruhlarga mansub hayvonlarni zararlashga qaratilgan moslashuvlar strategiyasini yoritish;

Melanoides kainarensis Starobogatov et Izzatullaev, 1980 mollyuskalari organlariga *Philophthalmus lucipetus* (Rudolphi, 1819) trematoda lichinkalarining ta'sirini aniqlash;

odam va hayvonlar trematodozlarining oldini olishning kompleks chora-tadbirlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekistonning o'rganilayotgan hududlari suv havzalaridagi turli taksonomik guruhlarga mansub trematoda serkariya turlari hamda ularning oraliq xo'jayinlari – Lymnaeidae Rafinesque, 1815, Planorbidae Rafinesque, 1815, Physidae Fitziger, 1833 va Thiaridae Gill, 1871 (1823) oilalariga mansub chuchuk suv mollyuskalari olingan.

Tadqiqotning predmeti serkariyalarning tur tarkibi va ularning taksonomik strukturasi, turli ekologik guruhlarga mansub hayvon-xo'jayinlarni zararlashga qaratilgan strategiyasi, tadqiq qilinadigan suv havzalarida trematodoz o'choqlarining hosil bo'lish mexanizmlarini aniqlash, hayvonlar va odamlar zararlanishining oldini olishning kompleks choralarini takomillashtirish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada gel'mintologik, malakologik, ekologik, gistologik, molekulyar-genetik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Markaziy va Shimoli-g'arbiy O'zbekiston suv havzalarida Lymnaeidae, Planorbidae, Physidae va Thiaridae oilalariga mansub 21 tur chuchuk suv mollyuskalarida trematoda serkariyalari bilan zararlanish aniqlangan;

mollyuskalarning oilalar kesimida trematoda serkariyalari bilan zararlanish darajalari (Lymnaeidae – 8,37%, Planorbidae – 11,9%, Physidae – 13,6%, Thiaridae – 26,7%) aniqlangan;

chuchuk suv mollyuskalarida trematoda serkariyalari faunasi 2 kenja sinf, 10 turkum, 13 oila, 27 avlodga mansub 38 turdan iboratligi aniqlangan;

trematoda serkariyalarining 4 turi – *Notocotylus ephemera, Philophthalmus lucipetus, Skrjabinoeces similis, Pleurogenes claviger* O'zbekiston faunasi uchun ilk bor yangi tur sifatida aniqlangan;

serkariyalarning mollyuskadan ajralib chiqish ritmlari suv harorati va yorug'lik omillariga bog'liqligi aniqlangan, ushbu jarayon bahorning oxiri, yoz va kuz fasllarida amalga oshishi asoslangan;

Markaziy va Shimoli-g'arbiy O'zbekiston suv havzalarida trematoda serkariyalar faunasining shakllanishi, bioekologik xususiyatlari va ularning biotsenotik aloqalari asosida amalga oshishi isbotlangan;

qayd etilgan serkariyalarning jinsiy voyaga yetgan shakllari (marita) baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va sutemizuvchilarning parazitlari sifatida, ushbu nuqtai nazardan kelib chiqib, trematoda serkariyalarining umurtqali hayvon – xo‘jayinlarni zararlash strategiyasi 4 guruhdan tashkil topishi bilan izohlangan;

Melanoides kainarensis mollyuska gepatopankreas va gonada to‘qimalariga *Philophthalmus lucipetus* lichinkalarining ta’siri birinchi marta aniqlangan;

Lymnaea auricularia mollyuska organizmida rivojlangan *Schistosoma turkestanicum* serkariyalari nukleotidlar ketma-ketligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

serkariyalarning tarqalishi, qishloq xo‘jaligi va ovlanadigan hayvonlarning asosiy trematodoz o‘choqlarining paydo bo‘lish yo‘llari aniqlangan hamda GAT xaritalari tuzilgan;

qishloq xo‘jaligi va ovlanadigan hayvonlar trematodozlarining oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishida gel’mintologik, molekulyar-genetik, gistologik va statistik usullarning qo‘llangani hamda ilmiy yondashuvlarni qo‘llash, tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy ma’lumotlarga mosligi, birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash, olingan natijalarning mavjud qonuniyatlarga mos kelishi, ular etakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi va keng aprobatsiya qilingani, morfometrik ma’lumotlarni qiyosiy farqlarining statistik tahlil etilganligi (BioStat 3.8, www.biostatsoft.com), ishlab chiqilgan chora-tadbirlar vakolatli davlat tuzulmalari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonning o‘rganilayotgan hududlari suv havzalarida trematoda serkariyalarining zamonaviy tur tarkibi birinchi marta kompleks tadqiq etilganligi. Mollyuskalardan ajralib chiqqan serkariyalar faunasining shakllanish yo‘llari, serkariyalarning mollyuskalardan chiqish ritmlarini va ularning asosiy xo‘jayinlarni zararlash strategiyalarining asosiy guruhlari ochib berilganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati serkariyalar faunasining tarqalishi, qishloq xo‘jaligi va ov hayvonlarining trematodoz o‘choqlarini aniqlash, trematodozlarga qarshi kurash va oldini olish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Markaziy va Shimoli-g‘arbiy O‘zbekiston suv mollyuskalari trematoda serkariyalari faunasi va uning shakllanish yo‘llari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

trematoda lichinkalarining zararlash strategiyalari hamda trematodozlarining oldini olish yuzasidan ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasining chorvachilikka ixtisoslashgan tumanlari veterinariya amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 13-apreldagi 33/01-04-212-son ma’lumotnomasi). Natijada, yirik va mayda shoxli hayvonlarda turli trematodoz (fassiolez, shistosomoz, gastrotilaksoz) kasalliklarning kelib chiqish yo‘llarini erta aniqlash va shu bilan birga chorva mollarining gel’mintozlarini monitoring qilish hamda profilaktik choralarni optimallashtirish imkonini bergan;

hayvonlarning asosiy trematodozlaridan biri – shistosomozga prazikvantelning supramolekulyar komplekslari bilan degelmintizatsiyasi hamda profilaktik degelmintizatsiya tadbirlarining optimal muddatlari bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kegeyli tumanidagi “Seyimbet” fermer xo‘jaligi faoliyati amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 13-apreldagi 33/01-04-212-son ma’lumotnomasi). Natijada, prazikvantelning modifikatsiyalangan preparatlarining qo‘y va qoramollar shistosomoziga nisbatan 100% samaradorlikga erishilgan;

chuchuk suv mollyuskalarining tarqalishini aks ettiruvchi 18 ta koordinata nuqtasida trematoda serkariyalarining faunasi va zararlash strategiyalari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining tasarrufidagi qator tashkilotlar (Bo‘zatov, Kegeyli, Qo‘ng‘irot, Taxtako‘pir, Mo‘ynoq tumanlari) amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 28-iyuldagi 01/18-133-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tadqiqot hududlarida trematodalarning tarqalishini prognoz qilish, kasalliklarning oldini olish hamda epizootik barqarorlikni ta’minlashga erishilgan;

O‘zbekistonning uy va yovvoyi hayvonlari sutemizuvchilar orasida keng tarqalgan *Schistosoma turkestanicum* Skrjabin, 1913 trematoda serkariyasining mitoxondrial DNK (COX1) sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo‘yicha olingan ma’lumotlar Biotenologik Axborotlar Milliy Markazi bazasiga (NCBI, https://www.ncbi.nlm.nih. gov/nuccore) joylashtirilgan. Natijada, *Schistosoma turkestanicum* Skrjabin, 1913 serkariyasining MW301394 identifikasiya raqami olingan va ushbu serkariya turini xalqaro miqyosda identifikasiya qilish hamda filogeniyasini o‘rganish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 32 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta monografiya va 16 ta maqola, jumladan, 8 ta respublika va 8 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, yetti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 188 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi va aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Suv mollyuskalari organizmi – trematoda lichinkalarining rivojlanish muhiti (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda trematodalarning oraliq xo‘jayinlari – suv mollyuskalarida rivojlanadigan parazitlarning lichinkalik fazalari, xususan, serkariyalar faunasi, tarqalishi, bio-ekologik xususiyatlari va taksonomik strukturasi borasidagi ma’lumotlar tahlili bayon etilgan. O‘zbekistonning Markaziy va Shimoli-g‘arbiy hududlarida serkariyalar faunasi, ekologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning kamligi, adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar hozirgi zamon serkariyalar faunasini tasvirlab bera olmasligi hamda ushbu muammolarni kompleks ravishda o‘rganish, nazariy va amaliy xulosalar asoslangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi – **“Markaziy va Shimoli-g‘arbiy O‘zbekiston suv mollyuskalari trematoda serkariyalari faunasi va uning shakllanish yo‘llarini o’rganish uslublari va materiallari”** deb nomlangan bobida tadqiqot olib borilgan suv havzalarining qisqacha tavsifi keltirilgan. Amudaryo va Zarafshon daryolari o‘rta va quyi oqimlarida shakllangan suv havzalarida mollyuskalar: Lymnaeidae, Planorbidae, Physidae va Thiaridae oilalariga mansub turlarning keng tarqalgani bo‘yicha yangi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu bobning tadqiqot materiallari va usullari qismida 2020-2024-yillar davomida O‘zbekistonning Markaziy va Shimoli-g‘arbiy qismidagi turli tipdagi suv havzalaridan yig‘ilgan. Tadqiqot bahor, yoz va kuz fasllarida o‘tkazildi. Mollyuskalar qabul qilingan standart gidrobiologik usul (Jadin, 1952; Kruglov, 2005) bo‘yicha hududlardagi tabiiy va sun’iy suv havzalaridan yig‘ilgan. Tadqiqot davrida Lymnaeidae, Planorbidae, Physidae va Thiaridae oilalariga mansub 21 tur mollyuskalarning 21304 ta individ namunalari yig‘ilgan va o‘rganilgan.

Serkariyalarni morfologik tadqiq qilish an’anaviy usullar (Ginetsinskaya, 1968; Combes et al., 1980; Ginetsinskaya, Dobrovolskiy, 1983; Galaktionov, Dobrovolskiy, 1987) yordamida amalga oshirilgan. Serkariya turlari monografiya va aniqlagich qo‘llanmalar bo‘yicha aniqlangan (Ginetsinskaya, 1968; Frolova, 1975; Azimov, 1975, 1986; Azimov i dr., 2014, 2018, 2019; Combes et al., 1980; Chernogorenko, 1983; Mukherjee, 2007).

Schistosoma turkestanicum Skrjabin, 1913 ning molekulyar-genetik identifikatsiyasi uchun serkariya suspenziyasidan ribosomal DNK sini ikkinchi ichki transkripsiyalovchi spaseri (18Sd6-28Sr3) bo‘laklari uch marta takrorlangan holda olingan.

Gistologik tekshirish uchun *Philophthalmus lucipetus* trematodasining lichinkalari bilan tabiiy zararlangan *Melanoides kainarensis* (22 ta namuna) va zararlanmagan (12 ta) mollyuskalardan foydalanilgan. Gepatopankreas bezi mollyuskalardan ajratib olinib, 10% neytral formalin va 70% etanolda saqlangan. Gistologik kesmalar Van Gison va Mallori (Romeys, 1953; Volkova, Eletskiy, 1971; Merkulov, 1969) bo‘yicha gematoksilin-eozin bilan bo‘yalgan.

O‘zbekistonning Markaziy va Shimoli-g‘arbiy suv havzalarida marshrut va statsionar usulda tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu hududda 18 ta (Markaziy qismda 12 ta, Shimoli-g‘arbiy qismda 6 ta) geografik punkt tanlangan bo‘lib, umumiy 90 ta (Markaziy qismda 56 ta, Shimoli-g‘arbiy qismda 34 ta) koordinata nuqtalari belgilangan (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududlar va koordinata nuqtalari

Barcha statistik tahlillar uchun Statistica V.6.0 Windows dasturiy paketi hamda Microsoft Excel 2007 dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot quyidagi zamonaviy asbob-uskunalar yordamida amalga oshirilgan: faza-kontrastli qurilmasi bo‘lgan mikroskop, invertirli SK2 – TR (Olympus, Japan), LOMO tadqiqot mikroskopi, sentrifuga – TR7 (Dupont, USA), binokulyar ML – 2200 (Olympus, Japan), N–V300M (China).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Suv mollyuskalarida rivojlanadigan serkariyalarning ekologik-faunistik tahlili”** ga bag‘ishlangan va olti qismdan iborat bo‘lib, olingan natijalar ketma-ketlik bilan keltirilgan.

O‘zbekistonning Markaziy va Shimoli-g‘arbiy suv havzalarida 21 turga mansub mollyuskalar qayd etilgan. Ularning 19 turi trematoda partenit va serkariyalari bilan zararlangani aniqlandi. Mollyuskalarning lichinkalar bilan umumiy zararlanishi 9.87% ni tashkil etgan. Lymnaeidae oilasi mollyuskalarining serkariyalar bilan zararlanish darajasi 1.7% dan 27.1% gachani tashkil etgan. Shundan kelib chiqqan holda, eng yuqori zararlanish keng tarqalgan turlarida *L. auricularia* – 27.1%, kam zararlanish *L. ovata* – 1.7% qayd etilgan.

Planorbidae oilasiga mansub mollyuskalarning 8 turini o‘rganish davomida 7 tur mollyuskada trematoda serkariyalari qayd etilgan. Zararlanish darajasiga ko‘ra, planorbidlar Lymnaeidae oilasi vakillarining zararlanishidan keyingi ikkinchi o‘rinni egallagan. O‘rganilayotgan suv havzalarida planorbidlarning trematodalar lichinkalari bilan zararlanish ekstensivligi 3.9 dan 25.3% gacha. *Pl. planorbis* (25.3 %) va *A. spirorbis* (19.4%) mollyuskalarida qayd etilgan.

Umuman olganda, O‘zbekistonning o‘rganilayotgan suv havzalarida chuchuk suv mollyuskalarining trematoda serkariyalari bilan zararlanish darajasi yuqoriligi qayd etilgan bo‘lib, bu “trematoda-mollyuska” tizimining barqarorligi hamda, qishloq xo‘jaligi va ov hayvonlari trematodoz o‘choqlarining shakllanishini tavsiflaydi (2-rasm). Shunday qilib, Lymnaeidae oilasi turlarining o‘rtacha zararlanishi – 8.3%, Planorbidae – 11.9%, Physidae – 13.6%, Thiaridae – 26.7% ni tashkil etishi kuzatilgan (2-rasm).



2-rasm. O‘rganilayotgan suv havzalarida mollyuskalarning trematoda lichinkalari bilan zararlanish darajasi

Markaziy va Shimoli-g‘arbiy O‘zbekiston suv havzalarida to‘rt oilaga mansub mollyuskalar trematoda partenit va serkariyalar bilan zararlangani aniqlangan. Aniqlangan trematoda serkariyalar 38 turni tashkil etgan (1-jadval).

1 – jadval

Markaziy va Shimoli-g‘arbiy O‘zbekiston suv havzalarida serkariyalar faunasi

Serkariya turlari	Markaziy O‘zbekiston	Shimoli-g‘arbiy O‘zbekiston
Lymnaeidae:		
Fasciola gigantica (Cobbold, 1856)	–	+
Fasciola hepatica (Linnaeus, 1758)	+	–
Notocotylus attenuatus (Rudolphi, 1809)	+	+
Echinostoma revolutum (Frochlich, 1802)	+	+
Echinostoma miyagawai Ishii,1932	–	+
Echinoparyphium aconiatum Dietz, 1909	+	+
Echinoparyphium recurvatum (Linstow, 1873)	+	+
Hypoderaeum conoideum (Bloch, 1782)	+	+

Haplometra cylindracea (Zeder, 1800)	+	+
Trichobilharzia ocellata (LaValette, 1855)	+	+
Apatemon gracilis (Rudolphi, 1808)	+	+
Cotylurus cornutus (Rudolphi, 1808)	+	+
Diplostomum spathaceum (Rudolphi, 1808)	+	+
Diplostomum helveticum (Dubois, 1929)	+	+
Diplostomum indistinctum (Guberlet, 1923)	+	+
Tylodelphys clavata Nordmann, 1832	–	+
Sanguinicola inermis Plehn, 1905	+	+
Schistosoma turkestanicum Skrjabin, 1913	–	+
Ornithobilharzia canaliculata (Rudolphi, 1819)	–	+
Opisthioglyphe ranae (Fröhlich, 1791)	+	+
Pleurogenes claviger (Rudolphi, 1819)	–	+
Plagiorchis elegans (Rudolphi, 1809)	+	+
Planorbidae:		
Bilharziella polonica (Kowalewsky, 1895)	+	+
Dendritobilharzia loossi Skrjabin, 1924	+	+
Notocotylus ephemera (Nitzsch, 1817)	+	+
Echinostoma revolutum (Frochlich, 1802)	+	+
Echinoparyphium aconiatum Dietz, 1909	+	+
Calicophoron calicophorum Davydova, 1959	+	+
Calicophoron erschowi Davydova, 1959	+	+
Liorchis scotiae (Willmott, 1950)	+	+
Cyclocoelium sp.	+	+
Skrjabinoeces similis (Looss, 1899)	+	+
Pneumonoeces variegatus (Rudolphi, 1819)	+	–
Pleurogenoides claviger (Rudolphi, 1819)	+	–
Gastrothylax crumenifer (Creplin, 1847)	+	+
Strigea falconis Szidat, 1928	+	+
Neodiplostomum sp.	+	–
Gigantobilharzia acotylea Odhner, 1910	+	+
Gigantobilharzia sp.	+	+
Dendritobilharzia pulverulenta (Braun, 1901)	+	+
Physidae:		
Gigantobilharzia sp.	+	–
Thiaridae:		
Philophthalmus lucipetus (Rudolphi, 1819)	+	–

Taqdim etilgan materiallar tahlili shuni koʻrsatadiki, serkariyalar faunasining xilma-xilligi, binobarin, trematodalarning hayot sikllarida tutgan oʻrni boʻyicha Oʻzbekistonning Markaziy va Shimoli-gʻarbiy suv havzalarida birinchi oʻrinni *Lymnaea auricularia* va *Planorbis planorbis* mollyuska turlari egallagan.

Trematoda serkariyalarining suv havzalarida tarqalishi bir xil emas. Trematoda serkariyalarining suv havzalari gorizontida tarqalishi biosenozlarda muhim rol oʻynagan. Tadqiqot davri davomida qayd etilgan hududlarning suv havzalarida ushbu masala boʻyicha kuzatish ishlari olib borilgan. Misol sifatida Mashankoʻl koʻlida (Qoʻngʻirot tumani) mollyuskalarning stasionar tadqiqotlari oʻtkazilgan. Shu bilan birga, ushbu suv havzasida trematoda lichinkalari va partenitlarining tarqalishiga e'tibor qaratilgan. Mashankoʻl koʻli boshqa suv havzalari singari, yuqori, oʻrta va pastki qismlari bilan farqlangan. Belgilangan hududlarda trematoda serkariyalari va partenitlarining tarqalishi bir-biridan farq qilishi bilan ajralib turishi kuzatilgan.

Uslubiy jihatdan yoz mavsumida (iyun, iyul, avgust) *L. auricularia* va *Pl. planorbis* mollyuskalarining zararlanishi, suv havzalarining turli qismlaridan mollyuskalarning 50 va undan ortiq namunalarini oʻrganish misolida olib borilgan. Oʻrganilayotgan suv havzasida (Mashankoʻl koʻli), shuningdek, Oʻzbekistonning Shimoli-gʻarbiy qismidagi boshqa suv havzalari uchun mollyuskalar (*L. auricularia* va *Pl. planorbis*) ning trematodalarning lichinkalik bosqichlari bilan zararlanishi va serkariyalarning yuqori, oʻrta va pastki qismlarida tarqalishining har xilligi bilan ajralib turishi qayd etilgan. Koʻlning yuqori qismida *L. auricularia* mollyuskalarida trematoda partenitlari va serkariyalari bilan zararlanish 25-33,6% ni tashkil etgan. Oʻrta qismida zararlanish koʻrsatgichilari 10,5% ni tashkil etadi. Pastki qismida bu koʻrsatgich 13,2 – 27,7% ni tashkil etgan. Amalda shunga oʻxshash holatni boshqa turdagi mollyuska *Pl. planorbis* ning zararlanganlini kuzatish mumkin. Ushbu mollyuskalarda trematoda serkariyalarining aksariyat turlari aniqlangan. *Lymnaea auricularia* va *Planorbis planorbis* mollyuskalari mos ravishda 14 va 15 tur trematodalarning oraliq xoʻjayini ekanligi aniqlandi.

Xarakterli jihati shundaki, suv havzasidagi mollyuskalarning eng yuqori zararlanishi oʻsimliklari koʻp va chuqurligi sayoz boʻlgan qirgʻoqboʻyi hududlarida kuzatilgan, ushbu zonalarda mollyuskalar populyasisining zichligi ham yuqori: vegetasiya davrida 1m gacha chuqurlikda *Lymnaea auricularia* va *Planorbis planorbis* individlari soni 30 dan 186 nusxa/m^2 ni tashkil etishi kuzatilgan.

Mantiqiy jihatdan shuni ta'kidlash lozimki, trematoda partenitlari va serkariyalarining suv havzalarida vaqt va makonda rivojlanishi hamda tarqalishi chuchuk suv mollyuskalarining rivojlanish dinamikasi bilan belgilangan. Yoz mavsumida mollyuskalarning son jihatdan ortishi trematoda lichinkalari bilan ommaviy zararlanishiga olib kelgan. Suv havzalarida trematoda oʻchoqlarining shakllanishi uchun umurtqali hayvonlar, asosan qushlar va sutemizuvchilarning mavjudligi ham katta ahamiyatga egaligi bayon qilingan.

Shunday qilib, suv havzalari gorizontlarida trematoda serkariyalarining tarqalish tabiati turlicha: serkariyalarning paydo boʻlish chastotasi va lokalizasiyasi boʻyicha birinchi oʻrinni yuqori va pastki qismlarning qirgʻoq, sayoz hududlari egallagan, ushbu hududda suv oʻsimliklari koʻpligi bilan tavsiflangan. Suv oʻtlari va suv oʻsimliklaridan hosil boʻlgan chakalakzorlarda - oraliq va boshqa toifadagi xoʻjayinlar (suv hasharotlari, baliqlar, amfibiyalar) keng tarqalgan. Ushbu hududlarning mavjudligi trematodalarning asosiy xoʻjayinlari – suv-botqoq qushlar va sutemizuvchilarning yuqori konsentrasiyada yigʻilishiga hamda ularning trematoda lichinkalari bilan zararlash imkoniyati yaratilganligi ta'kidlangan.

Mollyuskalarda shakllanadigan lichinkalar – serkariyalardir, ularning aksariyati suvga chiqadi. Bu, shuningdek, tegishli oraliq xo‘jayinlar – mollyuskalar Lymnaeidae, Planorbidae, Physidae, Thiaridae organizmida bir qator trematoda serkariyalarining rivojlantirishi bo‘yicha tadqiqotlarimiz natijalari bilan tasdiqlangan.

Trematoda serkariyalari faunasining shakllanishi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, jinsiy voyaga etgan so‘rg‘ichlilarning faunasi komplekslarini shakllanishning umumiy sxemasiga mos keladi, yagona farq shundaki, serkariyalar yuqorida qayd etib o‘tilganidek, mollyuskalar organizmida rivojlanadi. Ushbu jarayonlar bevosita abiotik va biotik omillarga bog‘liq. Aniqlangan lichinka shakllari soni bo‘yicha etakchi o‘rinni *Lymnaea auricularia* va *Planorbis planorbis* mollyuskalari egallagan, ularda serkariya turlarining 50% dan ortig‘i qayd etilgan, bu o‘rganilayotgan suv havzalarida “parazit-xo‘jayin” tizimining ishlash barqarorligini ko‘rsatgan. Serkariyalarning rivojlanishi va ularning o‘rganilayotgan suv havzalarida tarqalishi juda o‘xshash. Trematodalarning serkarial faunasining shakllanishi butun omillar majmuasining kombinasiyasiga muvofiq sodir bo‘ladigan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonda asosiy omillar toyifasi mollyuskalarning mavjudligi, trematodalarning tuxum va lichinkalari (mirasidiya) mavjudligi, suv havzasining rejimi, gidrobiologik ob’ektlarning tegishli fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari, umurtqali hayvonlarning – xo‘jayin hayvonlarining suv havzalari bilan bog‘liqligi, harorat rejimi va atrof-muhit bilan chambarchas bog‘liqdir.



3-rasm. O‘zbekiston suv havzalarida serkariyalarning rivojlanish sxemasi

Qayd etilgan jarayonlar ma’lum hududlarda biosenozlar va parazitosenozlarning shakllanishiga yordam beradi. Trematodalar serkariyalari faunasining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar orasida oraliq xo‘jayinlar – mollyuskalar alohida o‘ringa ega. Sporasista va rediyalardan ajralib chiqadigan serkariyalar aniq moslashuvlarga, ya’ni morfofunksional va fe’l-atvor xususiyatlari ikkinchi oraliq yoki asosiy xo‘jayinlarning zararlanishini ta’minlashga qaratilgan (3-rasm).

Yuqorida ta’kidlangan sabablar va omillarga asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki, trematoda lichinkalari va mollyuskalarning aniqlangan turlarining umumiyligi O‘zbekistonning Markaziy va Shimoli-g‘arbiy suv havzalaridagi serkariyalarning zamonaviy faunasini tashkil etishni ta’kidlash mumkin.

Dissertatsiyaning **“Trematoda serkariyalarning rivojlanish xususiyatlari (ayrim turlar misolida)”** deb nomlangan to‘rtinchi bobi sakkiz qismdan iborat bo‘lib, turli oilalarga mansub ayrim trematoda serkariyalarining alohida bosqichlari, rivojlanish biologiyasi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Trematodalarning o‘rganilayotgan guruhlari – umurtqali hayvonlar parazitlarining morfologik evolyutsiyasida sodir bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar ko‘rsatilgan.

Tabiiy va eksperimental materiallardan foydalangan holda ayrim trematoda serkariyalarining morfobiologik xususiyatlari tadqiq etilgan (Azimov i dr., 2019, 2020; Shakarbayev, 2017; Shakarbaev et al., 2020). Ushbu tadqiqotlar natijalari quyida keltirilgan.

Schistosoma turkestanicum Skrjabin, 1913 trematodasi serkariyalarining rivojlanishi. *Sch. turkestanicum* miratsidiyalari oraliq xo‘jayin tanasiga faol yo‘l orqali o‘tib, metamorfozga uchrashi va ona sporotsistaga aylanishi qayd etilgan. 28-32 °C havo haroratida mollyuska organizmida ona sporotsistalar 7–8 kunida rivojlanishiga erishgan. Bu sporotsistalarning uzunligi 0.252–0.609 mm va eni 0.035-0.237 mm. Qiz sporatsista ona sporotsistaning jinsiy hujayralaridan hosil bo‘lgan. Bu holat mollyuska organizmida 8-9 kunida harakatchan qiz sporotsistalar hosil bo‘lgan. Qiz sporotsista, o‘z navbatida, ko‘plab jinsiy hujayralarni o‘z ichiga olgan, cho‘zilgan, ipsimon shaklda aylangan. Qiz sporotsistalarning o‘lchamlari o‘zgaruvchanligi ta’kidlangan. Mollyuskalarning miratsidiyalar bilan zararlangandan keyin 12-15 kunida aniqlangan qiz sporotsistalarning uzunligi 0.096-0.483 mm va eni 0.021-0.053 mm ni tashkil etgan. 20-kundan keyin serkariyalar shakllanishi qayd etilgan. Shakllangan serkariyalar 22-25-kunlari qiz sporotsistaning maxsus chiqish teshichasi orqali tark etishi bayon etilgan. Bu jarayonlar suv havzalarida ro‘y beradi. Serkariyalar ko‘zsiz, afaringeal brevifurko serkariyalar guruhiga mansub.

Ko‘rinib turibdiki, shistosoma serkariyasida nafaqat xo‘jayin hayvonlarni topish, balki uning butun teri orqali kirib borish uchun ham moslashuvchanlik rivojlangan. Asosiy rolni serkariyalarning fiziologik moslashuvi bajaradi, bu “parazit-xo‘jayin” tizimining evolyutsiyasi jarayonida mustahkamlangan. Buni ba’zi trematodalarning atrof-muhit sharoitlariga moslashuvining biokimyoviy jihatlari bo’yicha o’tkazilgan tajribalar natijalari tasdiqlaydi (Azimom i dr., 2019; Norkobilov i dr., 2020).

Bilharziella polonica (Kowalewsky, 1895) trematoda serkariyalarining rivojlanishi. Miratsidiya – *B. polonica* trematodasining rivojlanishidagi birinchi lichinka fazasi hisoblanadi. Miratsidiyalar kiprikchalar yordamida suvda erkin suzib “xo‘jayin-mollyuska” bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘ladi va uning organizmiga faol tarzda o‘tadi. Mollyuska organizmiga o‘tgan miratsidiyalar ona sporotsistalarga aylanishi bayon etilgan. Tadqiqot doirasida zararlangan chuchuk suv mollyuskalar organizmidagi partenogenetik rivojlanishining bosqichlari eksperimental sharoitda kuzatilgan.

Planorbis planorbis va *Anisus spirorbis* mollyuskalari *Bilharziella polonica* miratsidiyalari bilan zararlanishi qayd etilgan. Mollyuskalar zararlangandan keyin *Planorbis planorbis* mollyuskalaridan 22-25 kunida, *Anisus spirorbis* esa 24-28-kunlarida to‘liq shakllangan serkariyalar ajralib chiqish kuzatilgan.

Serkariyalar ijobiy foto- va salbiy geotaksis omillari bilan tavsiflangan. Bir kunda ikki miratsidiya bilan zararlangan *Planorbis planorbis* molyuskasidan 1000 ga yaqin serkariyalar ajralib chiqishi qayd etilgan. Suvda serkariyalarning tanasi shaffofligi, harakat paytida u juda kichik o‘lchamda va tanasi turli shakllarda bo‘lishi kuzatilgan. Serkariyalar mollyuskadan chiqqandan so‘ng biroz xarakatlanib qorin so‘rg‘ich bilan suvning yuza tarangligiga birikishi va harakatsiz osilgan holatda xo‘jayinni kutish fazasiga o‘tishi aniqlangan. Serkariyalarning tashqi muhitdagi yashovchanlik davri taxminan 48-72 soatni tashkil etgan. Asosiy xo‘jayin bilan kontakt bo‘lgan vaqtda, serkariyalar uning terisi orqali faol ravishda asosiy ho‘jayin tanasiga o‘tgan.

Bilharziella polonica partenogenetik fazasining ontogenezi ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, mollyuska xo‘jayin tanasiga o‘tgan miratsidiyalar ham regressiv metamorfozga uchrashi va ona sporotsista keyin qiz sporotsistaga aylanishi aniqlangan. Qiz sporotsistalar bo‘shlig‘ida serkariyalar rivojlangan. Rivojlangan serkariyalar mollyuska tanasidan ajralib chiqgan. Ushbu turdagi serkariyalar, xususan, shistosomatidlar asosiy xo‘jayinning tanasiga teri qoplami orqali faol yo‘l bilan kirib borishi bilan tavsiflangan.

Dissertatsiyaning ushbu bobida, yana qator serkariya turlarining (*Echinostoma revolutum* (Fröchlich, 1802), *Notocotylus attenuatus* (Rudolfi, 1809), *Gastrothylax crumenifer* (Creplin, 1847), *Strigea falconis* Szidat, 1928, *Philophthalmus lucipetus* (Rudolfi, 1819)) rivojlanish fazalari keltirilgan.

Trematodalarning rivojlanish sikllarida sporotsista va rediyalar bilan ifodalangan ona sporotsistalarining morfo-biologik xususiyatlari alohida o‘rin tutadi. Bu fazalar bir-biridan nafaqat strukturaviy xususiyatlar, balki bir qator tadqiqotchilar tomonidan batafsil ko‘rib chiqilganda biologiyasi bo‘yicha ham farqlanishi aniqlangan (Ginetsinskaya, 1968; Galaktionov, Dobrovolskiy, 1998).

Tadqiqotda chuchuk suv mollyuskalari organizmida rivojlanadigan trematodalarning partenogenetik fazalarida sporotsista va rediyalari qayd etilgan (4-rasm).

Serkariyalar qiz sporotsista yoki rediyalarning bo‘shlig‘ida rivojlangan. Rediyadagi serkariyalarning rivojlanishi ushbu trematoda oilalari Fasciolidae, Philophthalmidae, Echinostomatidae, Paramphistomidae, Gastrothylacidae, Notocotylidae va Cyclocoeliidae uchun xarakterlidir. Shu bilan birga, quyidagi so‘rg‘ichlilarning serkariyalari sporotsistalarda rivojlanadi: Diplostomidae, Strigeidae, Schistosomatidae, Bilharziellidae, Aporocotylidae, Haematoloechidae, Pleurogenidae. Trematoda serkariyalari lokalizatsiyasi va rivojlanishining qayd etilgan xususiyatlari adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga mos kelishi bayon ettilgan.

Trematoda hayot sikllari evolyutsiyasida serkariyalarning umurtqali hayvonlarni zararlashga moslashishi. Serkariya trematodalarning hayot siklidagi ikkinchi erkin yashashga moslashgan bosqich bo‘lib, ularning biologik vazifasi keyingi xo‘jayinlarni (ikkinchi, rezervuar va asosiy) zararlashdan iboratligi ta’kidlangan (Ginetsinskaya, 1968; Ginetsinskaya, Dobrovolskiy, 1983; Galaktionov, Dobrovolskiy, 1998; Prokofev, 2006).



4-rasm. Trematodalar partenogenetik rivojlanishidagi A – sporotsistoidlik; B – redioidlik taraqqiyot sxemasi.

Trematoda serkariyalarining morfologik, biologik va fe’l-atvor moslashuvchanlik majmuasi xilma-xil bo‘lib, invaziyaning kelib chiqishi, birinchi oraliq xo‘jayindan (mollyuskadan) keyingi xo‘jayinlarga yetkazish “muvaffaqiyat”ini ta’minlashi qayd etilgan.

O‘zbekistonda aniqlangan trematoda serkariyalarining biologik va fe’l-atvor xilma-xilligi bo‘yicha, quyidagi strategiya guruhlariga ajratish imkonini bergan (5-rasm).

Birinchi guruh tashqi muhitda insistirlanadigan serkariyalar guruhidan iborat. Fasciolidae, Paramphistomidae, Gastrothylacidae, Notocotylidae oilalariga mansub serkariyalar suvli muhitda turli substratlarda insistirlanadi. Asosiy xo‘jayinni zararlash passiv ravishda, ya’ni insistirlangan lichinkalar – adoleskariyalarni oziq-ovqat yoki suv bilan yutish orqali amalga oshishi ta’kidlangan.

Ikkinchi guruh ikkinchi oraliq xo‘jayinning tanasiga kirib, metaserkariylarga aylanadigan serkariyalar guruhidan iborat. Bu guruh ko‘plab serkariya turlarini o‘z ichiga oladi va quyidagi: Echinostomatidae, Plagiorchiidae, Opisthorchiidae, Telorchiidae, Hematoloechidae, Pleurogenidae, Cyclocoeliidae, Strigeidae, Diplostomidae oilalardan iboratligi qayd etilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, aksariyat hollarda serkariyalar ikkinchi oraliq ho‘jayinlar sifatida – mollyuskalar va hasharot lichinkalari va boshqa umurtqasiz hayvonlardan tashkil etgan. Asosiy ho‘jayinlarga invaziyaning yuqishi umurtqasiz hayvonlar bilan ozuqlanishi yoki yutish orqali o‘tgan. Ayrim xollarda, parazitlarning asosiy xo‘jayinlari ozuqa manbai hisoblanuvchi rezervuar xo‘jayinlar (umurtqasiz va umurtqali hayvonlar – amfibiyalar, sudralib yuruvchilar, qushlar va mayda sut emizuvchilar) ham mavjudligi bayon etilgan.

Serkariyalarning uchinchi biologik guruhi asosiy xo‘jayining tegumentlari orqali faol ravishda kirib boradigan lichinkalardan iborat. Bu strategiya Aporocotylidae, Schistosomatidae va Bilharziellidae oilalariga mansub serkariyalar ekanligi qayd etilgan.

To‘rtinchi biologik guruh serkariyalari Philophthalmidae oilasi vakillaridan iborat bo‘lib, ular asosiy xo‘jayinlarni ikki yo‘l bilan ya’ni serkariyalar yoki metaserkariyalar orqali zararlash imkoniyatiga egaligi ta’kidlangan (5-rasm).



